

G'OFUR G'ULOMNING "BAXTLI BOLALIK" SHE'RIDA SO'Z BIRIKMALARI VA GRAMMATIK VOSITALARNING QO'LLANISHI

Sharipova Madina Ikromovna

Urganch davlat universiteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mashhur yozuvchi O'zbek xalqining sevimli yozuvchisi va shoiri G'ofur G'ulom she'riyatida so'z birikmalarini qo'llash mahorati yoritib berilgan. Shuningdek, yozuvchining grammatik vositalardan foydalanish uslubi haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nasr, nazm, Baxtli bolalik, so'z birikmasi, moslashuv, bitishuv, boshqaruv.

USAGE OF WORD COMBINATIONS AND GRAMMATICAL DEVICES IN THE POEM "BAXTLI BOLALIK" BY GHOFUR GHULAM

ABSTRACT

In this article, the skill of using word combinations in the poetry of the famous writer, the favorite writer and poet of the Uzbek nation, Gofur Ghulam, is explained. Also, information about the writer's use of grammatical tools was analyzed.

Key words: nasr, nazm, Baxtli bolalik, so'z birikmasi, moslashuv, bitishuv, boshqaruv.

KIRISH

Adib asarlari tili o'quvchi uchun hech qanday qiyinchiliktug'dirmaydi. Aksincha o'qish jarayonida kitobxonga tilning eng mazmundor xususiyatlaridan tuzilgan yaratiqdan ajib estetik zavq tuyuladi,.

G'afur G'ulom asarlari tilining muhim xususiyatlari to'g'risida akademik Sh. Shoabdurahmonov shunday deydi: "Badiiy asarga xos bo'lgan bu tasviriylik, obrazlilik va boshqa xususiyatlar umumiy til materialini yordami bilan emas, balki G'afur G'ulom sayqal bergan til va so'zning kuchi, qudrati bilan yaratilgan. U ishlatgan so'zlar, iboralar alohida olganda oddiygina so'z, ammo shoir to'qimasida purmano so'z va iboralar, ularning turli jilolanishidan yaratilgan."¹

¹ Sh. Shoabdurahmonov. Mohir so'z san'atkori. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1973 yil, 4-son.

Mohir soʻz ustasi oʻzining nasr¹iy va nazm²iy ijod namunalarida jonli xalq tili xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Shoirning sheʼrlarida oʻzbek tili leksik, grammatik xususiyatlaridan mohirona foydalangan. Uning sheʼrlarida grammatik vositalardan ayniqsa soʻz va soʻz birikmalarining, grammatik kategoriyalarning qoʻllanishiga, eʼtibor qaratadigan boʻsak, naqadar oʻrinli va oqilona foydalanganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Soʻz birikmasi- Soʻz bir tushunchani ifodalaydi. Soʻz birikmasida esa birdan ortiq tushuncha munosabatga kirishgan holda, tobe hokim munosabatiga kirishgan holda voqelanadi. Namuna:

Tobe soʻz hokim soʻz

↓ ↓

Mayin shamol

Tobe soʻz hokim soʻz

↓ ↓

Kitobni oʻqimoq

Bitishuv munosabati- bunda tobe soʻz va hokim soʻz hech qanday Grammatik vositalarsiz, faqat ohang va soʻz tartibi yordamida birikadi: mayin shamol.

Boshqaruv munosabati- bunda tobe soʻz va hokim soʻz qaratqich kelishigidan boshqa barcha kelishiklar va koʻmakchilar yordamida birikadi: kitobni oʻqimoq.

Moslashuv munosabati- bunda tobe soʻz va hokim soʻz qaratqich kelishigi yordamida birikadi: bizning uy.³

Shoir sheʼriyatining til xususiyatlarini “Baxtli bolalik” sheʼri asosida tahlil qilsak:

Bizning ulugʻ Partiya

Posbon boʻlgan Vatanda

Kishilar saodati

Yashnar mangu chamanda⁴

Ushbu satrlarda moslashuvli, bitishuvli, boshqaruvli soda va murakkab soʻz birikmalarini koʻrishimiz mumkin: bizning partiya- moslashuvli sodda soʻz birikmasi; kishilar saodati- qaratqich kelishigi belgisiz holda qoʻllangan moslashuvli sodda soʻz birikmasi; chamanda yashnar – oʻrin-payt kelishigi vositasida tobe va hokim munosabatga kirishgan boshqaruvli soda soʻz birikmasi va posbon boʻlgan vatanda-bitishuv munosabatli murakkab soʻz birikmasi.

¹ Nasr (arab. — koʻmak, zafar), proza — adabiy tur; vazn va qofiya singari sheʼriyatga xos unsurlarga ega boʻlmagan yozma nutq mahsuli.

² Nazm (arab. — tuzum, tartib; tizma sheʼr) — Sheʼriyat.

³ Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G. H., Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma.-T., “Fan va texnologiya”, 2009.-416 b.

⁴ Gʻafur Gʻulom. Asarlar- toʻrtinchi tom, dostonlar, manzumalar, bolalar uchun sheʼrlar.”Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti”. Toshkent-1973.

Xalq omon, mehnat omon

Baxt omon, Vatan omon

Xalqlar tilagi uchun

Tinchlik barqaror zamon

Bu to'rtlikda belgisiz qo'llanilgan sodda moslashuvli so'z birikmasi: xalqlar(ning) tilagi va bitishuv munosabatli murakkab so'z birikmasi : tichlik barqaror zamon kabi so'z birikmalari ishlatilgan.

Oilalar salomat

Qayga qarasang obod

Xalqimiz qudrati-la

Qilmoqda chaman ijod

Navbatdagi satrlarda qayer so'roq olmoshining qay tarzida, bilan ko'makchisining qisqargan –la shaklida qo'llanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu yerda ham belgisiz qo'llanilgan moslashuvli so'z birikmasini: xalqimiz qudrati-ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi satrlarda ham bitishuvli sodda so'z birikmasi qo'llanilgan: kommunizm zamoni

Shu o'g'ilcha ulg'ayib

Kamolga yetkuncha

Kommunizm zamoni

Kulib turar gul g'uncha

Rohati umrimizni

Xalqlar qilishar orzu

Baxtiyorlar vatani

Har tomon sochar yog'du

Uchinchi satrda ham belgisiz qo'llanilgan moslashuvli so'z birikmasi qo'llanilgan: baxtiyorlarning vatani.

XULOSA

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri edi. Xoh nasrda bo'lsin, xoh nazmda u yaratgan asarlar har bir o'zbek xalqining yuragidan joy egallagan. Adib nazmiga e'tibor berilsa, aynan jamiyat tarixi bilan bog'liq muhim hodisalarni tasvirlagan. Mohir so'z ustasi nazmda bo'sin yoki nasrda umumxalq o'zbek tili leksikasi va jonli so'zlashuv tiliga xos xususiyatlardan mahorat bilan foydalana olgan. Ushbu maqola orqali G'afur G'ulom she'riyati til xususiyatlarini uning yuqoridagi she'ri orqali biroz bo'lsada ochib berdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sh. Shoabdurahmonov. Mohir so‘z san‘atkori. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1973 yil, 4-son.
2. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R, Boqiyeva G. H., Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma.-T., “Fan va texnologiya”, 2009.-416 b.
3. G‘afur G‘ulom. Asarlar- to‘rtinchi tom, dostonlar, manzumalar, bolalar uchun she‘rlar.”G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti”. Toshkent-1973.
4. <https://uz.wikipedia.org>.